

“TARIX BILIMDONLARI” TUGARAGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TADBIRKORLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI

TARIX VA FALSAFA KAFEDRASI



“YOSH O'LKASHUNOSLIK”
tarix fan to'garagi
2025-yil

“YOSH O'LKASHUNOSLIK”
tarix fan to'garagi



Denov-2025

SO'Z BOSHI

Falsafa to'garaging dolzarbligi bugungi globalashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish uchun yangi fikrlar hamda g'oyalar izlash, yoshlar tafakkurida xalqimiz ma'naviy, axloqiy me'rosini singdirish, falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongida turli zararli g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilishga ko'maklashish, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafiy tafakkurni yanada rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy dunyoqarash bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." (*Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratiya O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. SHavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tatanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016 yil 14 dekabr*). Shu bois falsafaga yaxlit munosabatni, unda ko'tarilgan masalalarning teranroq va to'liqroq talqinini mazkur "Yosh o'lkashunoslik" fan to'garagida ifodalashga harakat qilinadi.

Ushbu "Yosh o'lkashunoslik" fan to'garagi barcha ta'lim yo'nalishlaridagi falsafa faniga qiziquvchi talabalarga o'tilishi belgilangan.

Bu to'garak o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, to'garak a'zolarini voqea va hodisalarning mohiyatini anglash, unga munosabat bildirishga hamda analitik, kreativ tafakkurni o'rgatadi. Shuning uchun "Yosh o'lkashunoslik" fan to'garagi yosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Umumiy qoidalar:

1. Nizom O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan vazifalar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 6 martdagi «Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash to'g'risida» gi 58-sonli buyrug'i ijrosini amalga oshirish yuzasidan oliy ta'lim muassasalarida ilmiy, ijodiy, kasbiy va sport to'garaklarni tashkillashtirish tartibi va shartlarini belgilaydi.
2. To'garaklar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida yuritadi.
3. To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi.
4. To'garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarini izlab topish ko'nikmalarini va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh talabalarning ma'lum fan yoki kasb bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar va kasb ta'lim ustalari tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.
5. To'garaklar Nizomi, ilmiy rahbari hamda uning tarkibi fakultet Ilmiy Kengashida ko'rib chiqiladi va universitet direktor buyrug'i bilan tasdiqlanib, faoliyatga kiritiladi.
6. To'garaklar - bilim va ta'lim sohalarida hamda mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun talaba-yoshlar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qiladi, o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil qilinishi mumkin: Shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash yo'nalishi, Sog'lom turnush tarzi, estetik va jismoniy madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Biologik bilim va madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Diniy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar yaxlitligi yo'nalishi, Siyosiy-huquqiy, iqtisodiy bilim va madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Texnik ijodkorlik va kasbiy malakani shakllantirish yo'nalishi, mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish yo'nalishi,

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish yo'nalishi, shaxs va ta'lim xizmatlari yo'nalishi va boshqalar.

"Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi maqsadi:

"Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi – talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash va ravon bo'yn etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

"Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi vazifalari:

- tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini tushunishga yordam berish; bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish;
- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy, tahliliy tanqid nuqtai nazaridan yondashish, o'z-o'zini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ko'nikmasini hosil qilish;
- yoshlarda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissin tarbiyalash;

"Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi fan bo'yicha talabalarining bilim,

ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

- "Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi o'zlashtirish jarayonida *talaba*:
- fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va uning jamiyat taraqqiyotida turgan o'rni, qadimgi va o'rta asrlar sharq va g'arb falsafasi, yangi va eng yangi davrlar falsafasining xususiyatlari, ta'limot va g'oyalari;
 - tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarning falsafiy qonuniyatlari, tafakkur va borliq, substansiya va materiya muammosi, makon va vaqt, tabiat falsafasi va ekologiyasi, energiya, inson borlig'i;
 - o'zbek milliy falsafasini va bu boradagi buyuk ajdodlarimizning merosi, insonning atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlar, globalashuv jarayonlari haqida *bilimga ega bo'lishi va undan foydalana olishi*;
 - jamiyat taraqqiyotiga oid axborotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanish, mantiqiy tahlil etish, o'zining kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni analitik va sintetik fikrlash asosida qabul qilish, mushohadaviy tafakkurga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilish;
 - yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olish, takomillashtirish va o'z mehnatini ilmiylik va bunyodkorlik asosida tizimli tashkil qilish;
 - fikr va qarashlarini og'zaki va yozma ravishda adabiy til qoidalarini asosida konstruktiv, mantiqiy ifoda etish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.
- "Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.**

"Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'naviy usullar, davra suhbat, klaster, bahs-munozara, aqliy hujum, prezentatsiya kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan, jumladan, elektron multimedia larni qo'llash, mavzular

bo'yicha tarqatma materiallar va slaydlar tayyorlash, mantiqiy sxemalar tuzish, talabalarga turli shakllarda ijodiy ishlar va topshiriqlar berish, muammoli darslar uyushtirish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, texnika vositalarini imkon darajasida qo'llash nazarda tutiladi. "Yosh o'lkashunoslik" fan to'garagi mazmun-mohiyatini o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy texnik vositalari (Internet materiallari), darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va boshqa manbalardan keng foydalaniladi.

"Yosh o'lkashunoslik fan to'garagi loyihalashtirishda quyidagi asosiy

konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yunaltilirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'lik o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'limberuvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimning ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ulami ijodiy tarzda qo'llashni, mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishni zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. Yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, mulotoq, hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'naviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskialoqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-surov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

“Yosh o'lkashunoslik” fan to'garagi mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi

№	Mavzular	Ajratilgan soat	Mas'ul o'qituvchilar
1	Surxondaryo tarixi maxsus kursining maqsad va vazifalari.	2	D.T.Yakubova.. U.R.Muminov
2	Surxondaryo viloyati tarixining eng qadimgi davri	2	J.N.Jonqobilov S.U.Boytorayev
3	Surxon vohasi Eron ahamoniylari saltanati tarkibida	2	D.T.Yakubova.. U.R.Muminov
4	Surxon vohasi Iskandar Zulqarnayn saltanati tarkibida	2	J.N.Jonqobilov S.U.Boytorayev
5	Yunon Baqtriya podshohligi davrida Surxon vohasi	2	J.N.Jonqobilov S.U.Boytorayev
6	Kushon podshohligi davrida Surxon vohasi	2	J.N.Jonqobilov S.U.Boytorayev
7	Yangi O'zbekistonda Surxondaryoning o'rni	2	D.T.Yakubova.. U.R.Muminov
8	XIII-XIX-asrlarda Surxon vohasi	2	D.T.Yakubova.. U.R.Muminov
9	Surxon vohasi 1917-1941 yillarda, BXS Rning tashkil topishi	2	D.T.Yakubova.. U.R.Muminov
10	Surxon vohasidagi milliy-ozodlik harakatlari.	2	D.T.Yakubova.. U.R.Muminov J.N.Jonqobilov S.U.Boytorayev

FAN, ILMIY, IJODIY, KASBIY VA SPORT TO'GARAKLARINING NIZOMI

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy, ijodiy, kasbiy va sport to'garaklarning nizomi
Umumiy qoidalar:

- Nizom O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan vazifalar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 6 martdagi «Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash to'g'risida» gi 58-sonli buyrug'i ijrosini amalga oshirish yuzasidan oliy ta'lim muassasalarida ilmiy, ijodiy, kasbiy va sport to'garaklarni tashkillashtirish tartibi va shartlarini belgilaydi.
- To'garaklar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida yuritadi.

~6~

- To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarini maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi.
- To'garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarini izlab topish ko'nikmalarini va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh talabalarning ma'lum fan yoki kasb bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar va kasb ta'lim ustalari tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.
- To'garaklar Nizomi, ilmiy rahbari hamda uning tarkibi fakultet Ilmiy Kengashida ko'rib chiqiladi va institut direktor buyrug'i bilan tasdiqlanib, faoliyatga kiritiladi.
- To'garaklar - bilim va ta'lim sohalarida mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun talaba-yoshlar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qiladi, o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil qilinishi mumkin: Shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash yo'nalishi, Sog'lom turmush tarzi, estetik va jismoniy madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Biologik bilim va madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Diniy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar yaxlitligi yo'nalishi, Siyosiy-huquqiy, iqtisodiy bilim va madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Texnik ijodkorlik va kasbiy malakani shakllantirish yo'nalishi, mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish yo'nalishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish yo'nalishi, shaxs va ta'lim xizmatlari yo'nalishi va boshqalar.

2. To'garaklarning asosiy maqsad va vazifalari

To'garaklarning asosiy maqsadi-talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to'liq safarbar etish hamda ularni har tomonlama hayotga tayyorlash, mamlakatimizda demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal eta oladigan yuksak ma'naviyatli, global fikrlaydigan, global mutasaddilik va global kasbiy mahorati shakllangan oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ijodkor iste'dodli yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish va talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashdir.

~7~

3. To'garaklarning asosiy vazifalari

Milliy g'oya, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni amalda qaror toptirish, inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug'lovchi, Vatanga sadoqatli, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish;

- talaba-yoshlarni hayotga maqsad va ishonch bilan yashashga tayyorlash, ularni eng yuksak qadriyat sifatida vaqtini qadrlash va undan samarali foydalanishga o'rgatish;

- talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish;

- talaba-yoshlar taraqqiyotida ma'naviyat olamining beqiyos ahamiyatini singdirish;

- ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida tushunchalar berish;

- yoshlar ongi va qalbini loqaydlik, befarqlik kabi illatlardan forig' etish;

- talaba-yoshlarda barcha ko'rinishdagi salbiy holatlarga qarshi kurashuvchanlik ruhini yaratish va rivojlantirish;

- yoshlar orasida vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy teranlik va tashabbuskorlik ilmiy-ijodiy iste'dod kabi fazilatlarini qaror toptirish hamda to'plangan boy badiiy-ijodiy va ilmiy-texnik salohiyatni yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish;

- yoshlarning ongi va siyosiy madaniyati darajasini hamda ilmiy salohiyatini yuksaltirish asosida ularning demokratik jarayonlar kirishuviga ko'maklashish.

Global fikrlaydigan yosh mutaxassislarni tayyorlash sohasida:

- talaba-yoshlarni mustaqil bilim olish jarayonida aqliy quvvatlari va vaqtlarini samarali sarflashga o'rgatish;

- milliy qadriyatni yaxshi bilgan va ularni e'zozlagan hamda jamiyat ichida qabul qilingan axloq va odob normalariga rioya qilishga o'rgatish;

- mehnatsevar inson degan ijtimoiy sifatni shakllantirish;

- milliy g'urur, ya'ni yashab turgan mamlakatining tarixini, ma'naviyat va madaniyatini bilish, uning olimu fozillari va qahramonlari bilan faxrlanuvchi hamda shu mamlakatlar ravnaqiga o'z hissasini faol qo'shib kelayotgan kishi qalbidagi umuminsoniy g'urur negizida paydo bo'lgan ruhiy kayfiyatni shakllantirish;

- yoshlarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasini namoyish qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;

- ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirib borishga ko'maklashish;

- talaba-yoshlarda dunyo miqyosidagi hamda mamlakatimizdagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatni shakllantirish, faol fuqarolik va vatanparvarlik pozitsiyasini kamol toptirish;

- yoshlarning ongi va siyosiy madaniyati darajasini, malakaviy mahorat hamda ilmiy salohiyatini yuksaltirish;

- Globallashuv-hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, mafkura paleonlari jarayonlariga ogohlilik va hushyorlikni kuchaytirish;

- talaba-yoshlarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi tashabbuskorlik, ijodkor va bunyodkor g'oyalar ruhida tarbiyalash;

- talabalarni ma'naviy kamol toptirish, bo'sh vaqtini fikr-mulohazalarga, baxs-munozaralarga chaqiruvchi, ijodiy faoliyatni kuchaytiruvchi g'oyalarni ishlab chiqish va targ'ib qilish.

Kasbiy mahorati shakllangan oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish:

- ijodkor yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, ularni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish;

- talabalarning bo'sh vaqtini maqsadli va mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab rivojlantirish;

- ilmiy-ijodiy izlanish olib borayotgan aspirant va talabalarga respublikadagi ijodiy jamoalar, ilmiy markazlar, fondlar hamda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga moddiy va ma'naviy yordamlashish;

- ilmiy va ijodiy izlanishlar natijalarini rag'batlantirish va keng ko'lamda targ'ib qilish maqsadida to'garak a'zolarining ijodiy ixtirolari bilan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, ko'rgazmalar va ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishga ko'maklashish;

- to'garak a'zolarining redaktsiyalar, ijodiy uyushmalar, tashkilotlar, fanlar akademiyasining ilmiy-tekshirish institutlari va ilmiy ishlab chiqarish markazlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda izlanishlar olib borishlari uchun imkoniyat yaratish;

- talabalarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida, ilmiy-ijodiy natijalarini tijoratlashtirish va qo'shimcha ish joylarini topishga ko'maklashish;

- xalqaro hamkorlikni tashkil etishda Internet orqali guruhning ish faoliyati va yutuqlarini targ'ib etuvchi Web-sahifa ochib, muntazam ravishda ilmiy-ijodiy faoliyatlarini yoritib borish;

- to'garakda ijodiy, innovatsion muhitni yaratish va ushbu jarayonda faol qatnashish.

4. To'garaklarning huquqlari

1. Institutda bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalarda qatnashish, turli ilmiy-amaliy anjumanlar, ko'rgazmalar, mushoira, ijodiy uchrashuvlar, tadbirlar majmuasini uyushtirish va o'tkazishda ko'maklashish.

2. Qonunda belgilangan tartibda reklama ishlarini amalga oshirish va o'z faoliyatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

3. Yoshlar orasida madaniy-ma'rifiy, ilmiy-amaliy ishlarini olib borish va to'garak faoliyati haqida axborotni keng targ'ib qilish.

4. Respublikamizdagi OTMLar, ilmiy markazlar, zamonaviy korxona va tashkilotlar hamda jamg'armalar bilan ilmiy-ijodiy hamkorliklar o'rnatish.

5. Talabalarni to'garak ishlariga keng jalb qilish va qiziqtirish maqsadida fakultetlar Ilmiy Kengashi qarori asosida to'garaklarga qatnashuvchi talabalar orasida tanlov tashkil qilish mumkin.

6. To'garaklar mehnat bozori talabalarini hisobga olgan holda buyurtmachi korxona, tashkilot va muassasalar hamda talabalar ota-onalari hisobidan ta'lim olayotgan yo'nalishlarga turdosh ta'lim yo'nalishlaridan chuqur bilim va ko'nikma berish maqsadida ham tashkil etilishi mumkin.

5. To'garaklarga a'zolik

Mazkur Nizom qoida va talablari hamda mutaxassislik to'garaklarining maqsad va vazifalarini ma'qullagan, millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ilmiy-ijodiy faoliyatiga o'z bilimi va qobiliyati bilan qiziqqan abturentlar, bakalavriat va magistratura talabalari to'garakka a'zo bo'lishlari mumkin.

To'garaklar turini tanlash va qatnashish talabalar uchun ixtiyoriy bo'lib, uning to'garaklarga ishtirok etish haqidagi og'zaki bildirishi yetarlidir.

6. To'garak a'zolarining huquq va burchlari

1. To'garak faoliyatiga doir barcha tashkiliy-amaliy masalalarning hal qilinishida teng huquqlik asosida ishtirok etish va to'garakning Nizomiga rioya qilish hamda uning maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish.

2. Nizomga to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritish borasida takliflar va tavsiyalar bilan chiqish.

3. Fakul'tetlarda to'garaklar uchun maxsus jixozlangan auditoriyalar, o'quv-texnologik jihozlar, axborot resurs markazi jamg'armasidan va jihozlaridan foydalanishi.

4. Talabalarning jamoat ishlarida ishtirok etishi va dam olishlari e'tiborga olinib, to'garak rahbari taqdimnomasiga muvofiq tuzilgan jadval asosida to'garakda qatnashish va mashg'ulotlarni sababsiz qoldirmasligi.

5. To'garak mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan barcha o'quv qurollarini olib kelish va xavfsizlik texnikasi hamda sanitar-gigienik me'yorlariga rioya qilish.

7. To'garaklarni tashkil etish va rahbarlik qilish

To'garak fakultet dekan tavsiyasi asosida rektorning buyrug'i bilan tashkil etiladi. Unga tajribali professor-o'qituvchilar va kasb ta'lim ustalari rahbarlik qiladi va yo'nalishlar bo'yicha mas'ul direktorlar nazorati ostida fakultet dekanlari

tomonidan boshqariladi hamda fakultet Ilmiy Kengashiga muntazam hisobot beradi.

To'garak rahbarining vakolatlari:

- Ilmiy va ijodiy to'garak Nizomiga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqadi;

- to'garak a'zolarining sonini (ishtirokchilar soni 5 nafardan kam bo'lmagligi kerak) belgilaydi;

- to'garak vakolatlarini va uning asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi;

- to'garak a'zolari va yo'nalishlar bo'yicha to'garak a'zolari tomonidan taqdim etilgan dasturiy hujjat, loyiha va kontseptsiyalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi;

- to'garak faoliyatini takomillashtirishga doir turli taklif va tashabbuslar bilan chiqadi.

To'garak rahbarlarida quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lishi lozim:

- oliy ta'limi muassasalarida to'garaklarni tashkil qilish Nizomi;

- to'garak dasturini tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalar;

- fakultet Ilmiy Kengash tomonidan tasdiqlangan to'garakning yillik ish rejasi;

- ishtirokchilarning davomatini qayd qilish jurnali;

- to'garak ish jadvali;

- to'garak ishtirokchilarning ro'yxati.

To'garak yig'ilishlarini o'tkazish uning hususiyatidan kelib chiqib, belgilanadi.

8. To'garaklar faoliyatini moliyalashtirish

To'garak faoliyatini tashkil qilish va uni yuritish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar o'rnatilgan tartibda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Korxonalar va tashkilotlar, yuridik yoki jismoniy shaxslarning to'garak tashkil qilish va uni moliyalashtirish to'g'risidagi takliflari amaldagi qonunchilik asosida hal qilinadi.

To'garaklar faoliyati uchun zarur moliyaviy mablag'lar institut tomonidan, quyidagi moddiy mablag'lar asosida shakllantiriladi:

- shartnoma asosida o'quv-uslubiy ishlar yaratish;

- badiiy, hujjatli filmlar namoyish etish, ijara xizmatlarini ko'rsatish va

- boshqa pullik xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

- homiylik mablag'lari;

To'garak faoliyati institutning «Ilmiy Kengash» qarori bilan tugatiladi.

Professor-o'qituvchilardan to'garak a'zolarining

Ro'yxati

T/R	Professor- o'qituvchilardan to'garak a'zolarining FIO	Fakulteti	kafedrasi	Ilmiy darajasi unvoni	To'garak faoliyatida
1	D.T.Yakubova.	Tadbirkorlik va boshqaruv	Tarix va falsafa	v.b.dots. (PhD) dotsent	Rahbar
2	U.R.Muminov	Tadbirkorlik va boshqaruv	Tarix va falsafa	v.b.dots. (PhD)	A'zosi
3	J.Jonqobilov	Tadbirkorlik va boshqaruv	Tarix va falsafa	O'qituvchi	A'zosi
4	S.U.Boytorayev	Tadbirkorlik va boshqaruv	Tarix va falsafa	O'qituvchi	A'zosi

To'garak rahbari:

D. Yakubova

Talabardan tugarak a'zolarining

Ro'yxati

№	Talabalarning ismi sharifi	Kurs, guruh	Ta'lim yo'nalishi
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			
8.			
9.			
10.			

11.			
12.			
13.			
14.			
15.			
16.			
17.			
18.			
19.			
20.			

TO'GARAK QATNASHCHILARI HAOIDA MA'LUMOT

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fakulteti Tarix va falsafa kafedrasi qoshidagi "Yosh o'lkashunoslik" fan to'garagining yig'ilishi yuzasidan

BAYONNOMA №

«__» 2024 yıl

Denov

Mavzu:

Ma'ruzachi:

Ilmiy rahbar:

O'tkazish shakli:

Mavzu mazmuni:

Qatnashuvchilar: _____

Ishtirok etganlar soni: _____

Izoh: _____

Qo'shimcha tadbirlar uchun izohlar

To'garak rahbari:

D. Yakubova
U.R. Muminov
J.N. Jonqobilov
S.U. Boytorayev